

Oziq-Ovqat Va Qishloq Xo'jaligini Barqaror Rivojlantirish Omillari

Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, "Menejment" kafedrası dotsenti, i.f.n.

Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 1b-22 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasini rivojlanishtirish masalasi hamda sohada faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'ektlari salmog'i tahlil etilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlanishini dolzarbligini keltirib chiqarayotgan bir qator omillar ko'rsatib o'tilgan. Mavjud muammolarni bartaraf etish va sohani rivojlantirish uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yer resurslarining taqchilligi, oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik, iqlim isishi, suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning kamayib borishi, tuproq unumdorligining pasayishi.

Kirish

Kelgusi 30-40 yil ichida global oziq-ovqat tizimi turli xil o'xshash omillar ta'sirida misli ko'rilmagan ta'sir ostida qoladi. Iste'molchilar soni borasida fikr yuritadigan bo'lsak dunyo aholisi bugungi kunda qariyb 8 milliarddan oshdi; 2035 yilga borib 9 milliarddan, 2058 yilda esa 10 milliarddan oshishi bashorat qilinmoqda. Aksariyat odamlar ko'proq farovon yashashni, ishlab chiqarish uchun ko'proq resurslarni talab qiladigan yanada xilma-xil, yuqori sifatli oziq-ovqatlarga talabni keltirib chiqarishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish sohasida yer, suv va energiya uchun raqobat kuchayadi, ayni paytda iqlim o'zgarishining ta'siri yanada kuchaymoqda. Issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga moslashish zarurati yanada dolzarb bo'lib qoladi. Bu davr mobaynida globallashuv davom etib, oziq-ovqat tizimini yangi iqtisodiy va siyosiy ta'sirlarga duch keladi.

Sohadagi ushbu muammolar ta'sirini kamaytirish va sohani rivojlantirish maqsadida respublikamizda ham bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Uning natijasida ijobiy o'zgarishlarga erishilmoqda. Bularni mamlakatimiz prezidenti tomonidan ta'kidlab o'tilgan quyidagi ma'ruzada ham o'z aksini topgan: "So'nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag'larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi.

Shuningdek, oxirgi uch yilda import o'rnini bosuvchi 75 turdagi 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi"[1].

Mamlakatimizda qolaversa, jahon bo'yicha oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan ishlarning miqyosini kengligiga qaramasdan hali yechilishi kerak bo'lgan bir qator muammolar mavjud.

Yer va suv resurslarining taqchilligi va globallashuv natijasida yuzaga kelgan boshqa omillarning ta'siri kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligining kelajagi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan uzviy bog'liqligi dunyoning barcha mintaqalarida yanada yaqqol o'z tasdig'ini topmoqda. To'g'ri rag'batlantirish va investitsiyalarni oqilona yo'naltirish bilan qishloq xo'jaligining ekologik ta'siri kamayishi va suv havzalari va biologik xilma-xillikni himoya qilish uchun ekologik xizmatlar salohiyatidan to'g'ri foydalanish mumkin[2].

Demak, mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat xavfsizligini va sog'lom ovqatlanishini ta'minlash, bu borada qishloq xo'jaligida mavjud muammolarni bartaraf etish hamda sohani rivojlantirish zarurati davlat siyosatini yangicha va xalqaro tan olingan ilg'or amaliyotga yondashgan holda yuritishni talab etmoqda.

Asosiy qism

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, rivojlangan davlatlarda inson salomatligini tiklash va mustahkamlashda vitaminlarga boy bo'lgan meva, uzum va sabzavot mahsulotlari bozorini rivojlantirishga, uning mavqeini muttasil ortib borishiga erishilmoqda. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xomashyo bilan ta'minlashda islohotlar samaradorligini oshirishga amalda tadbir etilayotgan chora-tadbirlar tufayli barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanmoqda.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik sohasi aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda asosiy o'rinda tutadi.

Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, respublikamizda 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 37 533 birlikni, shundan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarda – 34 831 birlikni hamda baliqchilik xo'jaligida – 2 702 birlikni tashkil etdi[3].

1-jadval. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)

| Soha yo'nalishlari | Birlik |
|--|--------------|
| Jami | 37533 |
| Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar | 34831 |
| Baliqchilik xo'jaligi | 2702 |

2023 yil yanvar-dekabr oyida qishloq va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) soni – 9 397 birlikni tashkil etdi.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p korxonalar va tashkilotlar Qashqadaryo viloyatida – 5 352 birlikni yoki respublika bo'yicha mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning 14,2 % ini tashkil etgan bo'lsa, aksincha eng kam korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida – 646 birlik (1,7 %) qayd etildi.

Ma'lumki, qishloq va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – bu sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati hisoblanadi. Qishloq va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, baliq ovlash sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 426,3 trln. so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 411,6 trln. so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 4,3 trln. so'mni tashkil qildi[3].

2-jadval. O'zbekiston Respublikasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi

(yanvar-dekabr, trln. so'm)

| Soha yo'nalishlari | 2019 yil | 2020 yil | 2021 yil | 2022 yil | 2023 yil |
|--|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|
| Jami | 224,3 | 261,9 | 317,0 | 362,9 | 426,3 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | |
| Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar | 217,3 | 253,2 | 306,9 | 350,1 | 411,6 |
| <i>shundan:</i> | | | | | |
| Qishloq xo'jaligi mahsuloti | 216,3 | 250,3 | 303,4 | 345,2 | 404,6 |
| Baliqchilik xo'jaligi | 1,5 | 1,9 | 2,6 | 3,2 | 4,3 |

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,5 % ni (2022 yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2021 yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – 114,5 %), shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 117,6 % ni, baliqchilik xo'jaligi – 134,3 % ni tashkil qildi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining 96,6 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2022 yilning yanvar-dekabr oylarida 96,5 %) va 1,0 % i – baliqchilik xo'jaligi (0,9 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlanishini dolzarbligini keltirib chiqarayotgan bir qator muammoli omillar mavjud[2]. Jumladan:

1. ochlik dunyo bo'ylab keng tarqalayotgan hodisa bo'lib qolishi;
2. ko'pgina oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlari barqaror emasligi;
3. dunyo aholisining o'sib borishi;
4. aholi jon boshiga talab hajmini va xarakterining o'zgarib borishi;
5. iqlim o'zgarishi;
6. oziq-ovqat tizimini milliy va xalqaro darajada hozirda ham, kelajakda ham boshqarilishi;
7. asosiy resurslar uchun raqobat va uni kuchayib borishi;
8. iste'molchi qadriyatlar va axloqiy pozitsiyalardagi o'zgarishlarning yuzaga kelishi va boshqalar.

Demak, atrof-muhit va tabiiy resurslarga insonlar va hayvonot olamining ta'siri kuchayib borishi, barqaror bo'lmagan qishloq xo'jaligi amaliyotlari, isrofgarchilik, ilg'or va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi oziq-ovqat balansi bo'yicha farqning o'sayotganligi, iqlim isishi, suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning kamayib borishi, tuproq unumdorligining pasayishi kabi omillar bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kundagi global oziq-ovqat tizimida shoshilinch choralar ko'rish masalasi endilikda avvalgiga qaraganda yanada kuchliroq o'ziga jalb qilmoqda. Ayniqsa, har bir sohani rivojlanishida alohida rol o'ynayotgan innovatsiyalar va ularni qo'llash rivojlanishning asosiy richagi bo'lib qolmoqda[4].

Biz tarixda turli omillar birlashadigan va keyingi 20-40 yil ichida oziq-ovqatga bo'lgan talab, ishlab chiqarish va taqsimotga ta'sir qiladigan davrdamiz. Suv, energiya va yer kabi muhim resurslar tobora kamayib borayotgan bir paytda dunyo aholisining o'sib borayotgan ehtiyojlari qondirilishi kerak bo'ladi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, oziq-ovqat tizimi iqlim o'zgarishiga moslashish va iqlim o'zgarishini yumshatishga katta hissa qo'shish bilan birga chidamli bo'lishi kerak. Shu bilan birga, juda ko'p odamlarga kuzatilayotgan ochlik bilan kurashish muammosini bartaraf etish uchun sa'y-harakatlarni ikki baravar oshirish zarurati mavjud. Global oziq-ovqat tizimidagi ta'sir bilan ehtiyojlarni qanday tez muvozanatlash kerakligini hal qilish siyosatchilar oldida turgan asosiy muammodir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish ijobiy natija beradi deb o'ylaymiz: qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqish va uni qayta ishlashni barqaror rivojlantirish, agrosanoat sohasini rivojlantirish va sohadagi innovatsiyalarni qo'llashni jonlantirish; agrosanoat sohasi infrastrukturasi rivojlantirish; qishloq xo'jaligi sohasidagi ilg'or yangiliklarni amalga oshirishni rag'batlantirish, investitsiyalar yo'naltirish; yerlarning sifatini yaxshilash va ulardan samarali foydalanish tadbirlarini amalga oshirishni kuchaytirish; sohada ixtisoslashuvdan samarali foydalanish; oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda kam chiqindili yoki chiqindsiz texnologiyadan foydalanishni rivojlantirish; baliq zahiralarni barqaror o'sishini ta'minlash uchun ularni ovlashni nazorat qilishni kuchaytirish; va boshqa shu kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-36-sonli farmoni. 2024 yil 16 fevral <https://lex.uz/uz/docs/-6802687>
2. Foresight. The Future of Food and Farming (2011) Executive Summary. The Government Office for Science, London.
3. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>
4. Dedajanov, B., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1978-1990.